

Zahiriddin Muhammad Bobur- sinovlarga boy hayot va buyuk meros egasi

Marvarid Xudoynazarova Bahodir qizi

O'zMPU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich magistri

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning sinovlarga boy hayot yo'li hamda boy adabiy va tarixiy merosi publitsistik ruhda tahlil qilinadi. Shuningdek, "Boburnoma" asarining tarixiy va badiiy ahamiyati, Boburning vatanparvarlik, matonat va bunyodkorlik g'oyalari ochib beriladi. Maqolada Bobur shaxsiyati bugungi avlod uchun ibrat va ma'naviy tayanch sifatida talqin etiladi.

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, Boburnoma, Boburiylar sulolasi, tarixiy shaxs, adabiy meros, ma'naviy meros, temuriylar davri, davlat arbobi, vatan sog'inchi.

"Har bir hududga borganda o'sha yerning tarixini o'rganish va tiklashga e'tibor qaratmoqdamiz. Bobur Mirzo xalqimizning buyuk farzandi. Adabiyot, ilm, ma'rifat nuqtai nazaridan u hamon yashayapti. Bu maskanni yanada obod qilib, tarbiya o'chog'iga aylantirish zarur. O'zligimizni anglab, buyuk tariximizni yoshlarga tushuntirsak, ilm-ma'rifatni rivojlantirsak, hech qachon kam bo'lmaymiz", - deydi Shavkat Mirziyoyev. Zahiriddin Muhammad Bobur Vatanimiz tarixidagi takrorlanmas siymolardan biridir. U nafaqat yirik adib, buyuk tarixchi, ulkan olim, balki mohir sarkarda va davlat arbobi ham edi. Uning ijodi mana shu sohalar bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga keldi. Yosh bo'lishiga qaramay, o'n ikki yoshida taxtni o'z qo'liga olib buyuk saltanatga boshchilik qildi. Rahim Vohidov ta'kidlaganidek: "Zahiriddin Muhammad Bobur - shoir, adib, she'rshunos- adabiyotshunos, donishmand faqih (islom qonunshunosi), tilshunos, elshunos, mantiq va riyoziyot ilmlaridan puxta xabardor jamoat arbobi sifatida o'zidan bebaho ma'naviy meros qoldirdi. Boshqa odamlarnikidan deyarii farq qilmaydigan mo'jazgina ko'ksida shering yuragi va jur'atini ko'tarib o'tgan bu mukarram zot aql bovar

qilmaydigan kashfiyotlar bilan yuzma-yuz yashab o'tdi, o'zidan sara ma'naviy xazina va nom qoldirish uchun kurashdi."

Zahriddin Muhammad Bobur 1483-yil 14-fevralda Farg'ona viloyatini idora qilayotgan temuriy hukmdor Umarshayx Mirzo xonadonida dunyoga keldi. Ma'lumotlarga ko'ra, Zahriddin Muhammad Bobur ismini yosh shayxzoda uchun o'sha davrdagi atoqli ulamolardan biri bo'lgan Xoja Nosiriddin Ubaydulloh Ahror Valiy tanlagan.

Bobur, birinchi navbatda, shoh, boburiylar sulolasining asoschisi hamdir. Balki, boburiylar jahon tarixida eng uzoq yillar(332 yil) hukmronlik qilgan sulola bo'lib chiqar...

U podshoh sifatida lashkar tortib shohlarga xos mag'lubiyatlarning achchiq alamlariyu zafarlarning ulug'vor nashidalarini surishni ko'p marotaba o'z boshidan kechirdi. Otasi singari ulug', himmatli va oliy maqsadli shaxs bo'lganligidan Farg'ona viloyatini kichik joy deb hisoblab, Samarqandga intildi. U yerda Shayboniixonidan yengilib, Kobulga keldi va keyin Hindistondek bepoyon yirik mamlakat hukmdoriga aylandi:

Beqaydmenu xarobi siym ermasmen,

Ham mol yig'ishtirur laim ermasmen.

"Kobulda iqomat qildi Bobur" dersiz,

Andoq demangizki, muqim ermasmen.

Hech bir shoir Vatandan yiroqlik fojiasini Boburchalik ko'ptomonlama va ta'sirchan ifodalay olmagan bo'lsa kerak. Bobur g'azallarining asosiy mavzusi oshiqona ehtiroslar, mushtoqliklar, yolvorishlar, iztiroblaru kuyib-yonishlardir.

Buyuk shoh Bobur Hindistonda temuriylarga xos ulug' bunyodkorlik an'analari davom ettirdi: muhtasham qasrlar tiklash, ariq-kanallar qazish, bog'-rog'lar bunyod etish, adabiyot, ilm-fan rivojiga homiylik qilish, elni adolat bilan boshqarish singari fazilatlar keyinchalik Hindistonning buyuk farzandlari tomonidan chinakam ijobiy baholandi.

Boburning ijodkorlik va kuzatuvchanlik qobiliyatiga e'tibor beradigan bo'lsak, u naqadar ko'nglikeng va e'tiborli qalamkash ekanligini ko'ramiz. Birgina shaxsda bir necha iste'dod shakllanish mumkin ekanligini aynan Bobur timsolida payqash mumkin. Shoir,

tarixchi, geograf, davlat arbobi, fohir, yurt, el obodonligi va ravnaqi uchun jon kuydirgan tadbirli hukmdor, va ayniqsa tabiatshunos olim sifatida tanilgan. O'zining shoh asari "Boburnoma"da Dashti Shayxda 32-33 xil lola, Kobulda 34 xil lola turini sanagani ham Boburning qiziquvchan ekanligidan darak. Bundan tashqari Bobur, poliz ekinlari, don ekinlari, daraxt nomlari, o'simlik nomlari, sabzavot nomlarini sabr bilan sanab, tartiblab chiqadi.

Buyuk davlat arbobi Zahriddin Muhammad Bobur o'zidan o'chmas iz qoldirdi. Bobur vafotidan keyin uning nomidan juda ko'p yangiliklar qilindi. Hozirgi kunda Bobur nomidagi stipendiya, Bobur nomidagi eco park, Bobur nomidagi kutubxona, Bobur nomidagi xalqaro jamoat fondi, Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti mavjud va elga faol xizmatda.

XULOSA. Bugun Bobur siymosiga nazar tashlar ekanmiz, undan faqat tarixiy faxr emas, balki ibrat ham olishimiz zarur. U bizga bir haqiqatni eslatadi: inson mag'lub bo'lishi mumkin, ammo taslim bo'lmasligi kerak. Uning murakkab hayot yo'li, siyosiy kurashlari va boy adabiy merosi bugungi avlod uchun muhim ibrat manbai hisoblanadi. "Boburnoma" va she'riy asarlarida aks etgan vatanparvarlik, matonat va insoniylik g'oyalari Bobur shaxsiyatining ma'naviy qudratini namoyon etadi. Shu bois Bobur merosini o'rganish tarixiy ahamiyat bilan birga, tarbiyaviy qiymatga ham egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Mirziyoyev. "Bog'i Bobur" istirohat bog'ida so'zlagan nutqidan.
2. Rahim Vohidov, Husniddin Eshonqulov: "O'zbek mumtoz adabiyot tarixi". O'quv qo'llanma, -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi. 2006
3. Vahob Rahmonov, "Ma'rifat" gazetasidan.
4. "Boburnoma". -Toshkent: Fan, 2008.
5. Hasan Qudratullayev: "Bobur armoni". Toshkent-2009.